



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.5 Issue 01 | pp. 80-84 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING O'RNI



Baxtiyorova Dildora

«International School of Finance Technology and Science»

instituti Menejment kafedrası o'qtuvchisi

Email: dildorabaxtiyorova45@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotni erkinlashtirishning ahamiyati va tutgan o'rni batafsil tahlil qilinadi. Erkinlashtirish jarayonlari orqali bozor mexanizmlarini takomillashtirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada iqtisodiyotni erkinlashtirishning mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli atroflicha yoritilgan. Xususiyl sektorni rivojlantirish, kapitalni jalb qilish, xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish borasida erkinlashtirishning natijalari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish, hududiy xususiyatlar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, Iqtisodiy barqarorlik, Resurslarni samarali boshqarish, Mahalliy taraqqiyot, Innovatsiyalar va texnologiyalar, Davlat siyosati, Hududiy rivojlanish strategiyasi.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется значение и роль либерализации экономики в обеспечении стабильности национальной экономики. Особое внимание уделяется совершенствованию рыночных механизмов, привлечению иностранных и внутренних инвестиций, а также развитию предпринимательской деятельности через процессы либерализации. Кроме того, в статье подчеркивается положительное влияние либерализации экономики на макроэкономические показатели страны и её роль в обеспечении долгосрочной экономической стабильности. Результаты либерализации, включая развитие частного сектора, привлечение капитала, расширение возможностей международной торговли и повышение конкурентоспособности, детально рассматриваются.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, Региональные особенности, Экологическая устойчивость, Социальная устойчивость, Экономическая устойчивость, Эффективное управление ресурсами, Местное развитие, Инновации и технологии, Государственная политика, Стратегия регионального развития.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the importance and role of economic liberalization in ensuring the stability of the national economy. Special attention is given to improving market mechanisms, attracting foreign and domestic investments, and fostering entrepreneurial activity through liberalization processes.

Furthermore, the article highlights the positive impact of economic liberalization on the country's macroeconomic indicators and its role in achieving long-term economic stability. The results of liberalization in terms of developing the private sector, attracting capital, expanding international trade opportunities, and enhancing competitiveness are thoroughly examined.

Key words: Sustainable development, Regional characteristics, Ecological sustainability, Social sustainability, Economic sustainability, Resource management, Local development, Innovation and technology, Government policy, Regional development strategy.

KIRISH

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash har bir davlatning eng asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda iqtisodiyotni erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy erkinlikning oshishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, biznes muhiti sharoitlarini takomillashtirish va sarmoyalarni jalb qilishda ham katta ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanish tushunchasi butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda uzoq muddatli o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan yondashuvni anglatadi. Bu jarayonning hududiy xususiyatlari, ya'ni turli hududlardagi barqaror rivojlanishning o'ziga xos ehtiyojlari, resurslari va imkoniyatlari, muhim ahamiyatga ega. Har bir hududning tabiiy boyliklari, iqtisodiy o'sish darajasi, aholining demografik tuzilishi, madaniy va ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlari, barqaror rivojlanishni amalga oshirishda sezilarli rol o'ynaydi. Shu bois, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning samaradorligini oshiradi.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan ko'plab muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-sonli farmoni "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"¹ to'g'risidagi farmoni bularning yorqin misoli bo'la oladi. Ushbu farmon iqtisodiyotni erkinlashtirishni yanada chuqurlashtirish, raqobat muhitini yaxshilash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Unda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Farmonda maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlangan.

Ushbu maqolada iqtisodiyotni liberallashtirishning milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati, uning amaliy natijalari va ijobiy ta'sirlari o'rganiladi. Shuningdek, mazkur jarayonga aloqador xavf-xatarlar va ulardan qochish choralari ham tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

<https://www.lex.uz/uz/docs/-4147294?ONDATE=25.10.2024>

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotni erkinlashtirishning o'zni bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar va maqolalar mavjud. Ushbu adabiyotlar iqtisodiy erkinlashtirishning nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikka, balki bozorlarning raqobatbardoshligini oshirishga ham katta ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 14- yanvardagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir" deb ta'kidlagan edilar.²

A.SH. Bekmurodov va U.V. G'afurovning fikricha, «Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi». Iqtisodchi A. Mo'minovning qarashicha: Iqtisodiy o'sish deganda bevosita yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi qiymatining ortishi tushuniladi. Agar maqsad mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash bo'lsa, u holda YaIM hajmining o'sish suratlaridan foydalaniladi³

Adam Smitning "Milliy boylikning tabiati va sabablari" asarida bozor erkinligining iqtisodiy o'sish uchun zaruriy shart ekanligi ko'rsatilgan. U erkin bozor iqtisodiyoti raqobatni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish uchun muhimligini ta'kidlaydi. Bu nazariyalar zamonaviy iqtisodiyotning erkinlashtirish siyosatiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Fridrix Xayekning "Iqtisodiy tizim va erkinlik" asarida davlatning iqtisodiyotdagi roli va davlat aralashuvi ta'siri o'rganilgan. Xayekning fikricha, iqtisodiyotni erkinlashtirish va davlat aralashuvining minimallashtirilishi bozorning samaradorligini oshiradi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi e'tibor qaratadigan bo'lsak, xususan, rivojlangan mamlakatlar, masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi iqtisodiyotni erkinlashtirish tajribasini tahlil qilgan tadqiqotlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muvaffaqiyatlar o'rganilgan. Ushbu mamlakatlarda amalga oshirilgan iqtisodiy erkinlashtirish siyosatlari bozorning samarali ishlashini ta'minlab, barqaror o'sishga erishish imkonini yaratdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti va erkinlashtirish bo'yicha ham juda ko'p ishlar olib borilmoqda shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirishga oid ilmiy ishlar, ayniqsa so'nggi yillarda, iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy erkinlashtirish choralari, xususiylashtirish jarayonlari va bozor infratuzilmasining rivoji milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirishga yordam bermoqda. Shuningdek, O'zbekiston

² Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 8-b.

³ Mo'minov A. «Iqtisodiy o'sish va uning omillari nimalardan iborat» //O'zbekiston ovozi. 20.05.2016 y

iqtisodiyotida raqobatni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va ishbilarmonlik muhiti yaratish masalalari ustida qator tadqiqotlar olib borilgan.

Ko'plab empirik tadqiqotlar iqtisodiyotni erkinlashtirishning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini o'rgangan. Bu tadqiqotlar erkin bozor siyosatining ish bilan ta'minlash darajasi, inflyatsiya, valyuta kursi va investitsiya hajmlariga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Statistik tahlillar orqali, erkinlashtirish siyosatlari amalga oshirilgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning tezlashganligi, ishsizlik darajasining kamayganligi va xalqaro savdoda muvaffaqiyatlar ko'rsatilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni erkinlashtirish milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, bu jarayon raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va ishbilarmonlik muhiti yaratish imkoniyatlarini beradi. Shuningdek, erkinlashtirish siyosatining muvaffaqiyati uchun davlatning maqsadga muvofiq siyosati, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish zaruriy shartlardir.

Ba'zi tadqiqotchilar barqaror rivojlanish jarayonida hududiy xususiyatlarning ahamiyatini ta'kidlagan. Masalan, X. Shahin (2019) o'z tadqiqotida barqaror rivojlanishning hududiy xususiyatlari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan [8]. nomli tadqiqotida barqaror rivojlanishning hududiy xususiyatlari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. U har bir hududda o'ziga xos tabiiy va ijtimoiy sharoitlar mavjudligini ta'kidlab, barqaror rivojlanishning samarali bo'lishi uchun bu sharoitlarga mos strategiyalar ishlab chiqilishi kerakligini aytadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanishning hududiy xususiyatlarini o'rganishda tabiiy resurslar, infratuzilma, ijtimoiy tuzilma va madaniy xususiyatlar kabi turli omillarni birgalikda tahlil qilish zarur. Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari barqaror rivojlanishning samarali amalga oshirilishiga ta'sir qiladi va turli hududlar o'rtasidagi farqlarni hisobga olish rivojlanish strategiyalarining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ilmiy ishni amalga oshirishda Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotni erkinlashtirishning o'rni tashkil etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy erkinlikning ahamiyati juda katta bo'lib, ushbu jarayon iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, bozor tamoyillarini joriy etish va davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini optimallashtirish orqali erishiladi. Shu mavzuga oid o'rganishlar natijasida quyidagi xulosalar ko'rib chiqishimiz mumkin:

– Bozor mexanizmlarining tatbiq etilishi

- Xususiy mulkchilikning kengayishi va tadbirkorlik faoliyatining rag'batlantirilishi milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.
- Xalqaro tajriba ko'rsatmoqdaki, erkin bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot tez sur'atlar bilan ro'y bermoqda.
 - Xalqaro savdo va investitsiyalarni ilgari surish
- Erkin savdo siyosati va sarmoyaviy jozibadorlikni oshirish choralari ko'rish ishlab chiqarish hajmining ortishiga xizmat qilgan.
- O'zbekiston misolida, so'nggi yillarda erkin iqtisodiy hududlar va chet el investitsiyalari uchun qulay sharoitlar yaratilgani iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirgan.
 - Mehnat bozorining erkinlashtirilishi
- Mehnat resurslaridan unumli foydalanish, yangi ish joylari tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish imkonini bergan.
- Biznes muhiti yaxshilangani natijasida kichik va o'rta biznesning ulushi ortgan.
 - Davlat boshqaruvida o'zgarishlar
- Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini bosqichma-bosqich qisqartirish va byurokratik cheklovlarni olib tashlash raqobat muhitini yaxshilashga yordam bergan.
- Soliq va bojxona tizimlarining liberallashtirilishi milliy iqtisodiyot uchun ijobiy natijalar bergan.
 - Iqtisodiy o'sishning tezlashuvi
- Erkinlik siyosati natijasida yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmi oshib, iqtisodiy o'sish sur'atlari kuchaygan.
- Qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida unumdorlik oshgan.
 - Xalqaro integratsiyaning kuchayishi
- O'zbekiston xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga faol integratsiya bo'lib, eksport hajmi oshib, chet el investitsiyalarini jalb qilishga muvaffaq bo'ldi.
- Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish yo'lida qadamlar qo'yildi.
 - Raqobatbardoshlikning kuchayishi
- Iqtisodiy erkinlik siyosati mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirib, ularni global bozor talablariga moslashtirdi.
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning kengayishi kuzatildi.
 - Aholi farovonligining oshishi
- Xususiy sektor rivojlanishi natijasida aholi daromadlari va iste'mol imkoniyatlari kengaydi.
- Ishsizlik darajasi sezilarli darajada pasaydi.

Ushbu tahlil va xulosalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy erkinlik milliy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. Ammo bu jarayonni samarali boshqarish uchun tizimli yondashuv talab etiladi.

Xulosa va takliflar

“Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotni erkinlashtirishning o'rni” mavzusida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni erkinlashtirish — bu mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, raqobatbardoshligini oshirishga, va global bozorda o'z pozitsiyasini mustahkamlashga

yordam beruvchi muhim jarayondir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, o'z navbatida, bozor tizimlarini rivojlantirish, davlatning aralashuvini kamaytirish, xususiy sektorga yangi imkoniyatlar yaratish va iqtisodiyotni xalqaro integratsiyalashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiyotni erkinlashtirish, o'zgarishlarga va yangilanishlarga ochiq bo'lishni talab qiladi, bu esa barqaror o'sishni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu jarayon davlat tomonidan ma'lum nazorat va tartibga solishni ta'minlashni ham kerak qiladi, chunki erkinlashtirishning beqarorlashtiruvchi ta'sirlari mavjud bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida davlat o'zining regulatsion siyosatini takomillashtirishi va yangilanishlarga moslashtirishi zarur. Bunga soliq tizimini, bojxona qonunlarini va investitsiya strategiyasini soddalashtirish kiradi.

Xususiy sektorga yangi imkoniyatlar taqdim etish va unga qarshi byurokratik to'siqlarni kamaytirish muhim. Bu nafaqat iqtisodiyotni erkinlashtirishni ta'minlashga, balki yangi ish o'rinlari yaratishga va innovatsion yechimlarni amalga oshirishga ham yordam beradi.

Global bozorlarga integratsiyalashuvni kuchaytirish orqali mamlakatning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish kerak. Yangi eksport yo'nalishlarini ochish, xalqaro moliya muassasalari bilan hamkorlik qilish va investitsiyalarni jalb qilish o'zaro foyda yaratadi.

Erkinlashtirish jarayonida ijtimoiy tenglik va barqarorlikni saqlash uchun yengil va samarali ijtimoiy himoya tizimlarini ishlab chiqish zarur. Bu, ayniqsa, iqtisodiy o'zgarishlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan davrda juda muhimdir.

Innovatsion iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash zarur. Ta'lim tizimi va o'quv dasturlarini iqtisodiyotning yangi ehtiyojlariga moslashtirish talabi oshib bormoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida prezident farmoni
2. Mirziyoyev Sh. M. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari.-T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2016
4. G'afurov U.V., Mustafaqulov Sh.I., Bo'taboev M.Sh., "O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" fanining o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi,
5. Blanchard, O., & Johnson, D. R. (2013). *Macroeconomics* (6th ed.). Pearson Education.
6. X. Shahin (2019) "Sustainable Development and Regional Differences"[9-19] www.peterlang.com

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

